

15-Iyun, 2026-yil

INGLIZ TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING OG‘ZAKI NUTQ KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI

Akbarova Ravzaxon Abdullaxaevna

Namangan davlat universiteti

Ingliz tili fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ingliz tili ta‘limida o‘quvchilarning og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishning ahamiyati, nutq ko‘nikmalarini shakllantirishda uchraydigan muammolar hamda ularni bartaraf etishning samarali usullari yoritilgan. Shuningdek, o‘quvchilarning muloqotga kirishish faolligini oshiruvchi interfaol mashqlar va o‘yin texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *og‘zaki nutq kompetensiyasi, kommunikativ kompetensiya, ingliz tili ta‘limi, interfaol metodlar, o‘yin texnologiyalari, nutq faoliyati, kommunikativ yondashuv.*

XXI asr globallashtirish, raqamli texnologiyalar va xalqaro hamkorlikning jadal rivojlanishi bilan xarakterlanadi. Bunday sharoitda chet tillarini, ayniqsa ingliz tilini mukammal bilish zamonaviy insonning muhim kompetensiyalaridan biri sifatida e‘tirof etilmoqda. Ingliz tili nafaqat xalqaro muloqot vositasi, balki ta‘lim, ilm-fan, biznes va madaniyat sohalarida muvaffaqiyatga erishishning muhim omili hisoblanadi. Shu sababli ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning ingliz tilida erkin muloqot qila olish ko‘nikmalarini shakllantirish dolzarb vazifalardan biridir.

Nutq insonning fikrlarini, his-tuyg‘ularini va ehtiyojlarini ifodalashning eng asosiy vositasidir. Kommunikativ yondashuvga ko‘ra, til o‘rganishning asosiy maqsadi grammatik qoidalarni yodlash emas, balki real hayotiy vaziyatlarda samarali muloqot qila olishni ta‘minlashdir (Richards & Rodgers, 2014). Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab o‘quvchilar ingliz tilida gapirish jarayonida o‘z fikrlarini erkin ifodalashda qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu holat esa og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash zaruratini yuzaga keltiradi. Shu o‘rinda og‘zaki nutq kompetensiyasining mazmuni va ahamiyatiga to‘xtalib o‘tmoqchimiz.

Og‘zaki nutq kompetensiyasi o‘quvchining til birliklaridan foydalangan holda o‘z fikrini mantiqiy, ravon va tushunarli tarzda ifodalay olish qobiliyatini anglatadi. Ushbu kompetensiya talaffuz, lug‘at boyligi, grammatik bilimlar va kommunikativ strategiyalarning uyg‘unlashuvi natijasida shakllanadi (Brown, 2007).

Til o‘rganuvchilar uchun gapirish ko‘nikmasi ko‘pincha eng murakkab faoliyat turi hisoblanadi. Chunki gapirish jarayonida o‘quvchi bir vaqtning o‘zida so‘zlarni tanlashi, grammatik jihatdan to‘g‘ri gap tuzishi va suhbatdosh bilan muloqotni davom ettirishi kerak bo‘ladi. Shu sababli ingliz tili darslarida o‘quvchilarni faol muloqotga jalb etadigan metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘quvchilarning gapirish ko‘nikmalarini rivojlantirishda bir qator muammolarga duch keladilar. Parupalli Srinivas Rao (2019) o‘quvchilarning ingliz tilida gapirish

15-Iyun, 2026-yil

ko‘nikmasini shakllantirish va baholash jarayonidagi qiyinchiliklarni quyidagicha ta‘riflaydi:

1. gapirish ko‘nikmasining murakkab tabiati;
2. baholash mezonlarini aniqlashdagi qiyinchiliklar;
3. tinglab tushunish, talaffuz va intonatsiya bilan bog‘liq muammolar.

Shuningdek, tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan amaliy kuzatishlar natijasida o‘quvchilarda quyidagi omillar nutq faoliyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi aniqlangan:

1. Lug‘at boyligining yetarli emasligi;
2. Grammatik bilimlarning sustligi;
3. Xato qilishdan qo‘rqish;
4. O‘ziga ishonchning pastligi;
5. Ingliz tilida muloqot qilish tajribasining kamligi.

Olib borilgan tadqiqotlarda ta‘kidlashicha, til o‘rganuvchilarda nutqiy faollikni pasaytiruvchi asosiy omillardan biri psixologik to‘siqlar hisoblanadi (Ur, 2012). O‘quvchilar xato qilishdan cho‘chib, suhbatlarda faol qatnashmaslikka harakat qiladilar. Natijada ularning kommunikativ kompetensiyasi yetarli darajada rivojlanmaydi.

Nutq kompetensiyasini rivojlantirishda interfaol metodlarning o‘rni haqida to‘taladigan bo‘lsak, zamonaviy pedagogika shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvli ta‘limni qo‘llab-quvvatlaydi. Bunday yondashuvda o‘quvchilar darsning faol ishtirokchisiga aylanadi va bilimlarni amaliy faoliyat orqali o‘zlashtiradi. Ayniqsa, o‘yin texnologiyalari va interfaol mashqlar o‘quvchilarning nutqiy faolligini oshirishda samarali vosita hisoblanadi. P. S. Rao (2019) ta‘kidlaganidek, ingliz tili darslarida sodda va qiziqarli mashqlardan foydalanish o‘quvchilarning gapirishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi. O‘yin elementlari qo‘llanilgan darslarda o‘quvchilar o‘zlarini erkin his qiladilar va muloqotga faolroq kirishadilar. Quyida o‘quvchilarning gapirish ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi bir necha interfaol mashq turlarini kebltirib o‘tamiz;

“Faraz qilish” mashqi. Mazkur mashqda o‘qituvchi biror buyumni yashirib qo‘yadi va o‘quvchilardan uning nima ekanligini taxmin qilishni so‘raydi. O‘quvchilar o‘z taxminlarini ingliz tilida bayon qiladilar va keyinchalik buyumni tasvirlaydilar. Ushbu faoliyat o‘quvchilarning lug‘at boyligini kengaytirish, tasviriy nutqini rivojlantirish hamda muloqotga bo‘lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi.

“Faqat bir daqiqa” mashqi. Bu mashqda o‘quvchilar ma‘lum bir mavzu yuzasidan bir daqiqa davomida to‘xtamasdan gapirishlari kerak bo‘ladi. Mavzular o‘quvchilarning yosh va til darajasiga mos ravishda tanlanadi. Masalan, “Mening oilam”, “Sevimli mashg‘ulotim”, “Mening maktabim”, “O‘zbekiston” kabi mavzulardan foydalanish mumkin. Mazkur mashq o‘quvchilarning nutq ravonligini, tez fikrlash qobiliyatini va o‘z fikrini izchil ifodalash malakasini rivojlantiradi.

Davra suhbat. Davra suhbat o‘quvchilarning muloqot madaniyatini shakllantiruvchi samarali metodlardan biridir. Ushbu faoliyat davomida o‘quvchilar muayyan mavzu bo‘yicha o‘z fikrlarini bildiradilar, boshqalarning fikrlariga munosabat bildiradilar va savollar beradilar. Davra suhbatlari nafaqat nutq kompetensiyasini, balki

15-Iyun, 2026-yil

tanqidiy fikrlash, tinglash va hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi (Harmer, 2015).

Hikoya aytish mashqi. Hikoya aytish (storytelling) o‘quvchilarning ijodiy fikrlash va nutqiy faolligini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilar shaxsiy tajribalari yoki tasavvuriy voqealar asosida hikoyalar tuzadilar va ularni sinfdoshlariga taqdim etadilar. Bu metod orqali o‘quvchilarning lug‘at boyligi kengayadi, grammatik konstruksiyalardan foydalanish malakasi rivojlanadi hamda nutqning mantiqiyli oshadi.

Xulosa. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, interfaol metodlar, o‘yin texnologiyalari, davra suhbatlari, hikoya aytish va qisqa nutq mashqlari o‘quvchilarning kommunikativ faolligini sezilarli darajada oshiradi. Shu bois ingliz tili o‘qituvchilari dars jarayonida bunday interfaol metodlardan muntazam foydalanishlari tavsiya etiladi. Natijada o‘quvchilarda ingliz tilida erkin, ravon va ishonchli muloqot qilish kompetensiyasi shakllanadi. O‘quvchilarning erkin muloqot qila olishlari ularning nafaqat til bilimlariga, balki kelajakdagi akademik va kasbiy muvaffaqiyatlariga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Nutq ko‘nikmalarini shakllantirishda lug‘at va grammatika bilimlarini mustahkamlash bilan bir qatorda, o‘quvchilarni real muloqot vaziyatlariga jalb etish muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Cambridge Academic Content Dictionary, Online Edition. Cambridge University Press. <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/discussion>
2. Parupalli Srinivas Rao ELT VIBES: International E-Journal For Research in ELT Volume, Number 4. 141-157. (2018)
3. Davidson, Bruce W. (1995). Critical thinking education faces the challenge of Japan. Inquiry: Critical Thinking Across the disciplines. XIV (3).
4. Harmer, J. (2001). The Practice of English Language Teaching. P. 46. Essex, England: Longman Press.
5. Littlewood, W. (1981). Communicative language teaching. Cambridge University Press.
6. <http://debatevideoblog.blogspot.com/2010/10/lecture-noisy-classroom-debate-for.html>